

## NAMANGAN VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar-may*






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **89** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2580** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-may oyida Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi **6775,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **106,0** % ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **413,7**mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,9** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **6361,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,7** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1019,5**mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,0** %) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oyiga nisbatan, foizda
<b>Namangan viloyati</b>	<b>6775,6</b>	<b>106,0</b>	<b>413,7</b>	<b>109,9</b>	<b>6361,9</b>	<b>105,7</b>
Namangan shahar	2823,2	105,5	202,8	122,7	2620,3	104,4
<i>tumanlar:</i>						
<i>Mingbuloq</i>	223,8	109,4	11,3	168,9	212,5	107,4
<i>Kosonsoy</i>	313,3	106,2	3,6	97,4	309,7	106,3
<i>Namangan</i>	337,5	104,7	16,6	95,0	320,9	105,2
<i>Norin</i>	301,9	106,1	19,0	84,2	282,9	108,0
<i>Pop</i>	390,3	111,8	39,1	218,2	351,2	106,0
<i>To'raqo'rg'on</i>	507,5	105,4	55,2	85,2	452,3	108,5
<i>Uychi</i>	334,0	105,0	3,4	101,2	330,6	105,1
<i>Uchqo'rg'on</i>	297,7	104,7	14,2	84,9	283,4	106,0
<i>Chortoq</i>	310,0	107,3	8,1	101,9	301,8	107,5
<i>Chust</i>	571,6	103,4	31,8	75,4	539,8	105,7
<i>Yangiqo'rg'on</i>	365,0	108,0	8,7	107,3	356,3	108,0

2023- yilning yanvar-may oyida 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan viloyatining Pop(**111,8** %), Mingbuloq(**109,4** %), Yangiqo'rg'on(**108,0** %), va Chortoq(**107,3** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


# YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar-may, mlrd.so'm)



So'nggi **6 yillikda** chakan savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2023- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,0%** ni yoki **6 775,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.


## Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar –may oyi)



2023- yilning yanvar-may oyida o'sish sur'ati **106,0 %** ni tashkil qildi.



## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



- |                 |             |                 |
|-----------------|-------------|-----------------|
| ■ Namangan sh.  | ■ Mingbuloq | ■ Kosonsoy      |
| ■ Namangan      | ■ Norin     | ■ Pop           |
| ■ To'raqo'rg'on | ■ Uychi     | ■ Uchqo'rg'on   |
| ■ Chortoq       | ■ Chust     | ■ Yangiqo'rg'on |

Namangan viloyatlarida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri **41,7 %** bilan **2 823,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Mingbuloq tumani **3,3%** bilan **223,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda ko'payish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **6 361,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **105,7 %** ga ko'paygan. Hududlar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,9%** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **109,9%** ni tashkil etgan va **413,7** mlrd. so'mga yetgan. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,1 %** ulushiga to'g'ri keladi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Namangan viloya	6,1	93,9
Yangiqo'rg'on	2,4	97,6
Chust	5,6	94,4
Chortoq	2,6	97,4
Uchqo'rg'on	4,8	95,2
Uychi	1,0	99,0
To'raqo'rg'on	10,9	8...
Pop	10,0	90,0
Norin	6,3	93,7
Namangan	4,9	95,1
Kosonsoy	1,1	98,9
Mingbuloq	5,1	94,9
Namangan sh.	7,2	92,8

■ Yirik korxonalar    ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi ( **99,0** %), Kosonsoy (**98,9** %) va Yangiqo'rg'on (**97,6** %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **6,1** % ni tashkil etib, eng katta ulush Namangan shahar(**47,9** %), To'raqo'rg'on (**17,2** %), Chust(**7,8** %), Namangan (**4,7** %) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	o'sish sur'ati, foizda
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2 254,8</b>	<b>103,6</b>
Namangan shahar	4 150,5	102,8
<i>tumanlar:</i>		
<i>Mingbuloq</i>	1 665,5	107,1
<i>Kosonsoy</i>	1 403,5	103,9
<i>Namangan</i>	1 788,4	102,2
<i>Norin</i>	1 746,1	104,1
<i>Pop</i>	1 683,6	109,6
<i>To'raqo'rg'on</i>	2 113,5	102,8
<i>Uychi</i>	1 467,0	102,7
<i>Uchqo'rg'on</i>	1 634,6	102,6
<i>Chortoq</i>	1 470,5	105,1
<i>Chust</i>	2 039,3	101,5
<i>Yangiqo'rg'on</i>	1 567,7	105,4


2023- yilning yanvar-may holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 254,8** ming. so'mni (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **103,6** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Namangan shahri (**4 150,5** ming. so'm), To'raqo'rg'on (**2 113,5** ming. so'm) va Chust (**2 039,3** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-may oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1019,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **105,0** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **456,9** mlrd. so'mni (**109,5** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **562,6** mlrd. so'mni tashkil etdi (**101,5** %).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.








## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1019,5</b>	<b>105,0</b>	<b>456,9</b>	<b>109,5</b>	<b>562,6</b>	<b>101,5</b>
Namangan shahar	310,6	118,8	169,6	139,8	141,0	100,7
<i>tumanlar:</i>						
<i>Mingbuloq</i>	46,7	97,8	11,9	82,9	34,8	104,2
<i>Kosonsoy</i>	58,4	98,8	11,6	82,4	46,7	103,9
<i>Namangan</i>	48,0	108,6	17,4	134,1	30,6	98,0
<i>Norin</i>	67,9	101,0	37,9	100,5	30,0	101,5
<i>Pop</i>	72,1	104,1	28,0	108,4	44,1	101,5
<i>To'raqo'rg'on</i>	139,7	105,7	69,8	108,6	69,9	102,9
<i>Uychi</i>	43,6	89,7	10,4	64,5	33,2	102,2
<i>Uchqo'rg'on</i>	42,9	104,1	23,9	105,5	19,0	102,3
<i>Chortoq</i>	58,6	87,4	25,1	73,5	33,5	101,8
<i>Chust</i>	61,1	92,0	30,2	85,3	30,9	99,5
<i>Yangiqo'rg'on</i>	69,8	104,6	21,0	115,0	48,8	100,7

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.











2023- yilning yanvar-may oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **456,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**203,8** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		mlrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>203,8</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>20,9</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>50,6</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>16,6</b>
	<b>Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	<b>10,5</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>18,3</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>15,8</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	<b>13,9</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>8,9</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>7,6</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>8,2</b>



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-may oyida viloyatimizning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **562,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **501,0** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **51,4** mlrd. so‘mni, otlar – **4,4** mlrd. so‘mni, parrandalar – **2,1** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	281,4
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	117,3
	1 yoshgachah bo‘lgan yosh mollar	102,3
	Qo‘ylar	51,4
	Otlar	4,4
	Echkilar	3,6
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,7
	Tovuqlar	0,4
	Quyionlar	0,03
	Qushlar	0,02

# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 653 tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-may oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,3 %** ni tashkil etib, **157,5** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,7 %** ga kupaigan. Bunda savdo aylanmasining **85,8 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda
<b>Namangan viloyati</b>	<b>157,5</b>	<b>105,7</b>	<b>22,3</b>	<b>117,8</b>	<b>135,2</b>	<b>103,9</b>
Namangan shahar tumanlar:	101,8	109,1	17,5	127,7	84,2	105,9
<i>Mingbuloq</i>	3,2	100,9	0,0	0,0	3,2	100,9
<i>Kosonsoy</i>	3,1	100,6	0,0	0,0	3,1	100,6
<i>Namangan</i>	12,0	133,0	4,8	263,0	7,2	100,3
<i>Norin</i>	2,7	101,1	0,0	0,0	2,7	101,1
<i>Pop</i>	6,8	100,6	0,0	0,0	6,8	100,6
<i>To'raqo'rg'on</i>	4,0	101,3	0,0	0,0	4,0	101,3
<i>Uychi</i>	2,1	102,0	0,0	0,0	2,1	102,0
<i>Uchqo'rg'on</i>	3,7	100,4	0,0	0,0	3,7	100,4
<i>Chortoq</i>	3,6	100,8	0,0	0,0	3,6	100,8
<i>Chust</i>	12,0	78,3	0,0	0,0	12,0	100,7
<i>Yangiqo'rg'on</i>	2,6	101,7	0,0	0,0	2,6	101,7

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyun holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **1 263,7** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **118,6 %** ga ko'paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **319,1** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **108,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **–944,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **122,6 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi



### Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1 263,7</b>	<b>100,0</b>
Namangan shahar	896,1	70,9
<i>tumanlar:</i>		
<i>Mingbuloq</i>	7,3	0,6
<i>Kosonsoy</i>	6,9	0,5
<i>Namangan</i>	10,7	0,8
<i>Norin</i>	25,1	2,0
<i>Pop</i>	38,9	3,1
<i>To'raqo'rg'on</i>	7,9	0,6
<i>Uychi</i>	12,7	1,0
<i>Uchqo'rg'on</i>	5,8	0,5
<i>Chortoq</i>	11,1	0,9
<i>Chust</i>	231,9	18,4
<i>Yangiqo'rg'on</i>	9,2	0,7

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Namangan shahri (**896,1** mlrd. so'm), Chust (**231,9**mlrd. so'm) va Pop (**38,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Namangan viloyati bo‘yicha 2023- yilning yanvar-may oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 711,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,0 %** ga o‘sd.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **2 875,7** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,2 %** ga to‘g‘ri keldi. Namangan viloyati ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **77,5 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORKONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Mingbuloq (**1165,3 m.**), Uychi(**237,6**) va Kosonsoy(**148,7**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalari soni **24** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyun holatiga nisbatan **2** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **119,3** % tashkil etgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalar soni **1 267** tani tashkil etib 2022- yil kichik 1- iyun holatiga nisbatan **60** taga ko'paygan.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – may oyiga nisbatan, foizda
<b>Namangan viloyati</b>	<b>3 711,4</b>	<b>108,0</b>	<b>835,7</b>	<b>119,3</b>	<b>2 875,7</b>	<b>105,2</b>
Namangan shahar	2 600,3	111,2	435,6	115,2	2 164,7	110,4
<i>tumanlar:</i>						
<i>Mingbuloq</i>	75,0	229,0	44,7	1165,3m	30,2	92,4
<i>Kosonsoy</i>	114,9	106,8	21,1	148,7	93,8	100,4
<i>Namangan</i>	87,9	87,9	17,0	57,4	71,0	100,7
<i>Norin</i>	116,5	96,1	41,5	116,6	75,1	87,5
<i>Pop</i>	78,7	76,9	0,0	0,1	78,6	103,5
<i>To'raqo'rg'on</i>	176,6	113,3	116,8	123,0	59,8	98,3
<i>Uychi</i>	127,7	83,3	51,6	237,6	76,1	57,8
<i>Uchqo'rg'on</i>	97,7	132,3	72,1	148,5	25,6	101,2
<i>Chortoq</i>	93,2	101,8	0,0	0,0	93,2	101,8
<i>Chust</i>	59,6	78,8	35,3	68,4	24,3	101,2
<i>Yangiqo'rg'on</i>	83,2	100,7	0,0	0,0	83,2	100,7



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 69-227-84-95**